

Oltin kuz

Zulfiya



Zulfiya
1915–1996

Zulfiya – O'zbekiston xalq shoirasi. U 1915-yil 1-martda Toshkentda tug'ilgan. Onasi ko'plab xalq qo'shiq va afsonalarini bilar va ularni farzandlariga aytib berar edi. Bu Zulfiyada so'zga bo'lgan muhabbatni uyg'otdi va tarbiyaladi.

Yosh shoiraning birinchi she'rlar to'plami u bor-yo'g'i 17 yoshda bo'lganida nashr etilgan. U o'z she'rlarida do'stlikni

hamda inson qalbi go'zalligini kuylagan.

1999-yilda O'zbekistonda adabiyot, san'at, fan, madaniyat va ta'lim sohasidagi yutuqlari uchun iqtidorli yosh qizlarga beriladigan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi.



Sevaman, oltin kuz, sevaman jondan,
Atlas tabiatli go'zal chog'ingni.
Daraxtlar libosi rango-rang, gulgun*,
Ko'zni erkalagan chaman bog'ingni.

Sevaman, yerlarga rangdor yaproqlar
Yumshoq va rang-barang gilam to'shasa.
Gul terganday terib barg qizaloqlar,
Qushlarday gurpanglab* yayrab o'ynasa...

Bulut chodirini yirtib, mo'ralab,
Chiqsa Quyosh ko'kka*, bo'laman maftun.
Sevaman nurlarda pati yaltirab,
Oppoq kabutarlar qilsalar o'yin...

Sevaman, oltin kuz, sevaman jondan!
Tovusday bezangan daraxt, bog'larni!
Yomg'irli oqshoming, quyoshli tonging,
Xayolga cho'mganim go'zal onlarni!



gulgun – qizg'ish, pushti
gurpanglab – to'da-to'da bo'lib
ko'k – osmon



1. She'rdan qaysi fasl haqida so'z boradi?
2. Muallif kuzni qanday tasvirlaydi? U kuzga nisbatan qanday tuyg'ularni his qiladi?
3. She'rdan tabiatning qanday manzaralari tasvirlangan?
4. Kuzda barglar bilan nima sodir bo'ladi?
5. Daraxtlar nimaga o'xshatiladi? Nima uchun?
6. Matnda "rango-rang", "rang-barang", "rangdor" so'zlari ishlatilgan. Bu kuzning qanday ranglari bo'lishi mumkin?
7. She'rdan kuzning qanday belgilarini topish mumkin?
8. Kun davomida tabiat kayfiyati qanday o'zgaradi?



She'ni yod oling.

